

## JAHON TILSHUNOSLIGIDA MAQOLLARNING TADQIQI VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA PAREMALARNING O'RGANILISHI


*Madalov Navruz Ergashevich,*

*Termiz davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti kafedrasida dotsent  
v.v.b., (PhD)*

## STUDY OF PROVERBS IN WORLD LINGUISTICS AND RESEARCH OF SAYINGS IN ENGLISH LANGUAGE

*Madalov Navruz Ergashevich,*

*Associate Professor of the Department "English Language and  
Literature" of Termez State University, (PhD)*



E-mail:  
madalovnavruz2@gmail.  
com

<https://orcid.org/0007-0002-1400-9214>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida maqollarning o'rganilishi masalasi tahlil qilingan. Zero, globallashuv davrida xalqlarning ma'naviy boyligi hisoblangan maqollarni har tomonlama ilmiy jihatdan tadqiq qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, parema, maqol, tadqiqot, hikmatli so'z, xalq maqollari, paremiologiya, matal, paremiologik birliklar, aforizm, frazeologiya, didaktik xarakter.

**Аннотация:** В данной статье анализируется проблема изучения пословиц в мировом языкознании. Ведь в эпоху глобализации большое внимание уделяется всестороннему научному исследованию пословиц, которые считаются духовным богатством народов.

**Ключевые слова:** языкознание, парема, пословица, исследование, мудрое слово, народные пословицы, паремиология, паремиологические единицы, афоризм, фразеология, дидактический характер.

**Annotation:** This article analyzes the problem of studying proverbs in world linguistics. Indeed, in the era of globalization, much attention is paid to a comprehensive scientific study of proverbs, which are considered the spiritual wealth of peoples.

**Key words:** linguistics, parame, proverb, research, wise word, folk proverbs, paremiology, matal, paremiological units, aphorism, phraseology, didactic character.

### KIRISH/BВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION

Globallashuv davrida xalqlarning ma'naviy boyligi hisoblangan maqollarni har tomonlama ilmiy jihatdan tadqiq qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Maqollar til materiallari bilan muhrlangan birlik emas, balki u millat dunyoqarashining beqiyos qudratini namoyon etuvchi xazina hamdir. Bu esa nutqning ko'rki sifatida keng qo'llanib kelinayotgan maqollarni lingvistik jihatdan yanada chuqurroq o'rganishga undaydi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD /ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS

"Qomus info onlayn ensiklopediyasi"da paremiologiya quyidagicha ta'rif berilgan: yun.

paroimia – hikmatli so'z, zarbulmasal va logos – ta'limot ni ifodalaydi:

1) ma'lum bir tildagi ajdodlardan avlodlarga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o'rganadigan fan sohasi;

2) muayyan tilda mavjud bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar – paremalar tizimidir. Paremalarning kelib chiqishi, tarixan rivojlanishi va ma'no xususiyatlarini o'rganuvchi paremiologiya bo'limi frazeologiya bilan chambarchas bog'liq. Paremiologiya tilda mavjud bo'lgan turli xil iboralarni o'rganadi, frazeologiya

esa uning bir qismi sifatida faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganadi. Shu jihatdan ular o'zaro farqlanadi, o'rganish obyektining birligi, ya'ni bir necha so'zdan tashkil topgan turg'un, barqaror birikmalarni tekshirish ular o'rtasidagi o'xshash, umumiy tomoni hisoblanadi [2].

Bizga ma'lumki, paremiologik birliklar dunyoning barcha tillarida mavjud bo'lib, ular turli davrlarda olimlarning tadqiqot markazi bo'lib xizmat qilgan. Jahon tilshunoslari paremalarning tadqiqida asosiy e'tiborni ularning qiyosiga qaratishadi.

#### **МУНОКАМА/ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION**

I.Y. Yudinaning "Метафора в английской пословице" nomli dissertatsiyasi birinchi bobida "Maqol va metaforaga" doir mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilgan. Paremiologik birliklar doirasida maqollarning o'rni belgilangan. Ikkinchi bobda maqollar sistemaviy asosda tadqiq etilib, ularning semantik xususiyatlari katta hajmdagi misollar orqali tahlilga tortilgan. Ushbu paremiologik birliklar sevgi, do'stlik, mehnat, aql, uy, oila kabi semantik maydonlarga ajratilgan. Shu bilan birga, maqollar tarkibidagi leksemalarning uslubiy imkoniyatlari izohlangan. Tadqiqotning uchinchi bobida esa maqollarning uzual va okkazonal uslubiy vazifalari tahlil qilingan hamda uslubiy vazifalari qatoriga predikativ vazifa, nutqni ixchamlashtirish vazifasi, obrazli ifodalash vazifasi, baholash vazifasi kabilarni kiritgan.

Tadqiqotchi Chjen Inkuyning nomzodlik dissertatsiyasida rus tilidagi zoonimlar leksik, semantik, funksional, etimologik va uslubiy jihatdan tahlil qilingan. Ishda zoonimlarning sinonimik va omonimik xususiyatlari, so'z yasalishi hamda ko'chma ma'no hosil qilishdagi o'rni o'rganilgan. O.A. Dmitriyeva rus va fransuz tili materiallari asosida maqol va matal, aforizmlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rgangan. Tadqiqot ishida olti mingdan ortiq badiiy matn parchasini tahlilga tortgan.

Z.K. Tarlanov ham o'z tadqiqotlarida maqolga quyidagicha izoh beradi:

- 1) maqol doimo gap shakliga ega;
- 2) maqol doimo qator mulohazalarini ifodalaydi;
- 3) maqol hamma qabul qilgan qoidalar ko'rinishida hayotiy tajribani umumlashtiradi.

#### **NATIJALAR/РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS**

Ilmiy adabiyotlarda paremiologik birliklarni ushbu turini frazeologiya tarkibida o'rganish taklif etilgan va o'z navbatida bunga qarshi fikrlar ham mavjud. Jumladan, V.V. Vinogradov, A.V. Kunin kabi olimlar maqol va matallarni frazeologik birliklar tarkibiga kiritishni taklif qiladi. A.A. Potebnya esa maqol va masal o'rtasida umumiylikni ta'kidlab, ko'p hollarda maqollarning kelib chiqish manbai hayotda bo'ladigan va bir yoki bir necha kishi hamda harakatlaridan iborat turli xil hodisalarga javob beradigan masalalardir. Shu bilan birga, matal, masal yoki maqolning elementidir, uning bir qismi maqol va masaldan qoldiq sifatida kelib chiqadi, boshqa qismi esa ulargacha rivojlana olmagan. Bizningcha, maqol tugallangan fikrni ifodalab kelsa, matalga jumla yoki so'z qo'shilishi orqali fikr yakunlanadi.

Bizning fikrimizcha, maqol xalq tomonidan yaratiladi uning muallifi bo'lmaydi aforizm esa ma'lum bir avtorga ega bo'lgan hikmatli so'zdir. Maqollar har bir xalqning o'ziga xos turmush tarzini ifoda etib, ular xalqning "kodi" hisoblanadi. Maqollarning barcha tillarda turlicha ifodalanishi ularning har xil din vakillari ekanliklari, geografik joylashuvi hamda tarixiy jarayonlari turlicha bo'lishi bilan tavsiflanadi. Binobarin, xalq maqollarini to'plash, ularning tabiatdagi turli davrlarga xos qatlamlarini izchil sinfiylik nuqtai nazaridan o'rganish lozim. X–XI asrlarda Angliyada diniy qarashlar rivojlanishi natijasida didaktik asarlarga bo'lgan ehtiyoj oshib borib, bir qator pand-nasihat mazmunidagi asarlar vujudga keldi. Shunday asarlardan biri – eng qadimgi ingliz maqol-matalarining yozma to'plami hisoblangan "Proverbs of Alfred"dir. Mazkur asar 1150–1180-yillarda yaratilgan bo'lib, o'zida diniy hamda odob-axloqqa doir ko'rsatmalarni mujassamlashtirgan.

Angliyada paremiologik birliklarga bo'lgan qiziqish o'rta ingliz davrida (XVI–XVII asrlar), ya'ni "maqol tarzidagi hikmatli iboralarning oltin davri"da yanada ortdi. Jozef Reymond maqollarni quyidagicha izohlaydi: Proverbs are not only melodic and witty, possessed with rhythm and imagery; proverbs also reflect "patterns of thought. Ya'ni, maqollar ixcham va ritmik tuzilgan bo'lib, u donoliknigina ifodalab qolmay, balki inson o'y-fikrlarining aksidir. Maqollarning qisqa va lo'ndaligi, tez yodda qolishi va boshqalarga ta'sir o'tkaza olganligi uchun olimlar va notiqar

o'zlarining chiqishlarida ulardan umumli foydalanishar edi. Bu davrda Angliyada maqollarni o'rganish borasida aniq bir maqsadga yo'naltirilgan ilmiy yo'nalish bo'lmaganligi sababli, olimlar ularning sonini va kelib chiqish manbalarini aniqlash bilangina cheklanishardi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, maqollar xalqning donoligini ifodalovchi va hamisha avlodlarga meros qoluvchi janrdir.

Maqollarning mualliflari bo'lmaganidek, ularning qachon va qay paytda paydo bo'lgani ham aniq emas. Masalan, **Beware of Greeks bearing gifts** – Yunonlarning o'ralgan sovg'asidan ogoh bo'l. Ushbu maqolda tarixiy voqeaga borib taqaladigan hodisa berilgan bo'lib, uning ma'nosini aniq tushunib yetishimiz uchun qadimgi yunonlarning troyaliklar bilan bo'lgan jangini eslab o'tishimiz kerak bo'ladi. Yillar davomida Troyani qo'lga kiritolmagan yunonlar hiyla ishlatib ot shaklidagi kattaligi binocha keladigan qo'g'irchoq va uning ichiga yashirin ravishda yunon askarlari joylashtiriladi. Uni Troyaga g'alaba sovg'asi sifatida jo'natishadi. G'alaba nashidasini so'rayotgan troyaliklar uni sovg'a sifatida qabul qilishadi. Tunda troyaliklar g'alabani nishonlayotib mast bo'lib qolishadi, bundan foydalangan yunonlar ot shaklidagi yog'och qo'g'irchoqdan birma-bir chiqib, troyaliklarni qatl qilib, ko'pchiligini asrga olishadi. R.R.Zamaletdinovning ta'kidlashicha, paremiya xalq ichidan kelib chiqqan aforizmdir. Masalan, naql didaktik xarakterdagi kichik-kichik hikoyatlarga nisbatan qo'llansa, aforizm yirik ijodkorlar, olimlar, partiya va davlat arboblari asarlarida uchrovchi yoki yaratilishi jihatidan shunday shaxslarga mansub bo'lgan, hamda faol qo'llanuvchi hikmatli so'zlarga nisbatan ishlatilmoqda.

Bizning fikrimizcha, maqol xalq tomonidan yaratiladi uning muallifi bo'lmaydi aforizm esa ma'lum bir avtorga ega bo'lgan hikmatli so'zdir. Ko'rinib turibdiki, maqollar milliy qadriyatlar merosi, xalq og'zaki ijodining durdonasi hisoblanadi. Ularni xalq yaratadi, ya'ni ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda o'tadi. Demak, maqollar – bu xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko'rsatadigan xalq og'zaki ijodining “gavharidir”, deb ta'rif berish mumkin.

## **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).**

Umuman olganda, maqollar asrlar davomida xalqlarning noyob durdonalaridan biri bo'lib, til va badiiy ijodning teran mazmuniga ega hodisasi sifatida yuzaga kelgan. Ular xalq ma'naviyati, madaniyati, donoligi, milliy qadriyatlar merosi va millatning ko'zgidir. Muxtasar qilib aytganda, tadqiqot davomida jahon tilshunosligida paremiologik birliklar ustida qizg'in va jiddiy ishlar olib borilganligiga guvohi bo'ldik. Xususan, maqollarning lingvomadaniy, stilistik, pragmatik, gender kabi xususiyatlari chuqur tadqiq etilgan. Biroq, tabiat hodisalari bilan bog'lab o'rganilgan paremalarning sinonimik va antonimik tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlarga deyarli duch kelmadik. Shu boisdan ham biz ingliz va o'zbek tili paremalarini tabiat hodisalari bilan bog'lab tadqiq etishni maqsad qildik.

## **ADABIYOTLAR (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. English Proverbs Explained//Ridout R. Witting C. –London and Sidney: Pan Books, 1969. – 224 p.
2. George Crabb English Synonyms Explained, in Alphabetical Order with Copious Illustrations and Examples Drawn from the Best Writers, 2nd edition,
3. Hassel J.B. Folk Genrs. – London: Greenwood Press, 1998. – 193 p.
4. Биктагирова З.А. Концепт “Семья” в паремиологии английского, турецкого и татарского языков. – Казань, 2007. – 228 с.
5. Дмитриева О.А. Культурно-языковые характеристики пословиц и афоризмов на материале французского и русского языков: Дисс.... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 189 с.
6. Dundes A. On the structure of the Proverb, in Mieder, W. & A. Dundes. The Wisdom of many: Essays of the Proverb. Madison, Wisconsin: University of Wisconsin Press. 1994. – 352 p.
7. Мадалов Навруз “Баъзи табиат ҳодисаси билан боғлиқ мақолларда шаклий ва маъновий муносабатларнинг ифодаланиши” TerDU конференция 2022 йил 18. 12. 310-315 б.
8. Тарланов З.К. Русские пословицы: синтаксис и поэтика. Петрозаводск: Изд-во Петрозаводск. ун-та, 1999. – 448 с.